

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduxamidov Islombek

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI	10-18
--	-------

Фарманова Гульнара Комилевна

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ	19-24
---	-------

Индиаминова Шоира Амриддиновна

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ	25-29
--	-------

Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH	30-35
--	-------

Ismoilova Parvina

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI)	36-41
---	-------

Jomurodov Lazizbek Islomovich

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI	42-46
---	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ	47-54
---	-------

Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH	55-61
--	-------

Mamadaliyev Ulug'bek

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI	62-69
---	-------

Jalilov Arslon Xoshimovich

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH	70-75
--	-------

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI	76-82
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Djurayev Lukmon Narzullaevich

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI	83-87
---	-------

Norkulov Ubaydulla Umarovich

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI 88-92

Пулатов Шердор Нематёнович

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ 93-105

Yusupov Murodali Sunnatovich

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY-

FALSAFIY MASALALARI 106-110

Suleymanov Sarvar Sunatullayevich

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI 111-116

Shernazarov Ravshan Avazovich

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI 117-122

Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich

VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI 123-126

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Matkarimova Salomat Ko'ziyevna

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK 127-133

Tairova Maxfuza Abdusattorovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI 134-139

Rahimova Maftuna

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA 140-143

Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN

TADQIQOTLAR 144-147

Xursanov Nurisлом Iskandarovich

O'ZBEK FRAZEOLIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI 148-154

Umarov Umidjon Akram o'g'li

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI 155-159

Облокулова Шахло Асрор қизи

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ 160-164

Nazarova Lola Maqsadilla qizi

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI 165-170

Umarxonova Dilafruz Murotjonovna

"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI 171-175

Yunusova Ganjina Rustamovna

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI 176-180

Мусаев Файзулло Оманович

АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinova</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзаков Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI	283-289
---	---------

Калимбетов Ерназар

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ	290-297
--	---------

Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI	298-306
--	---------

Ходжаева Ширин

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ	307-317
--	---------

Маматкулов Камолiddин Галабаевич

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	318-323
---	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Nazarova Ra'no Sidiq qizi

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	324-329
---	---------

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI	330-341
--	---------

Hamidova Laylo Kamildjonovna

OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	342-346
---	---------

Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI	347-357
---	---------

Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR	358-363
--	---------

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA	364-369
---	---------

Jalilov Umidjon Jahongirovich

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI	370-375
---	---------

Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi

OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	376-381
--	---------

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI – PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 30 June 2024**Accepted:** 5 July 2024**Published:** 15 July 2024*Article / Original Paper***ALISHER NAVOIY AND KHAYDAR KHORAZMIY: SIMILARITY AND INDIVIDUALITY****Matkarimova Salomat**

Candidate of philology, Associate professor, Urgench State University

Email: salomatmatkarimova@urdu.uz

Abstract. This article analyzes the influence of Heydar Khorezmi's works on Alisher Navoi's work. The similarity and harmony of the ideological content and form of expression of the epics of Navoi and Haydar Khorezmi testify to their mutual connection and influence. The influence of Haydar Khorezmi can be felt in Navoi's aesthetic views, based on examples.

Key words: Alisher Navoi, Heydar Khorazmi, commonality, originality, epic, style, aesthetic vision.

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK**Matkarimova Salomat Ko'ziyevna**

Filologiya fanlari nomzodi, UrDU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodiga Haydar Xorazmiy asarlarining ta'siri masalasi tahlil qilingan. Navoiy va Haydar Xorazmiy dostonlarining g'oyaviy mazmun va ifoda shaklidagi o'xshashlik, hamohanglik ularning o'zaro aloqadorligi, ta'sirdan guvohlik beradi. Navoiyning estetik qarashlarida ham Haydar Xorazmiy ta'siri sezilishi misollar bilan asoslangan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Haydar Xorazmiy, mushtaraklik, o'ziga xoslik, doston, uslub, estetik qarash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N19>

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Haydar Xorazmiyning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"[1], Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"[16], "Muhokamat ul-lug'atayn" [17] asarlari hamda o'zining "Maxzan ul-asror" dostonida[20] uchraydi. E.E.Bertels [21], H.Zarifov, A.Abdug'afurov, B.Valixo'jayev, E.Rustamov, J.Sharipov, A. Hayitmetov [4] singari bir qator olimlar ilmiy izlanishlarida shoir va uning "Mahzan ul-asror" dostoni yuzasidan fikr-munosabat bildirilgan. Nizomxo'ja Abdullayev asarning qiyosiy matni ustida ishlab, 1974-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Xususan, Navoiy ijodiga Haydar Xorazmiy ta'siri masalasiga N.Mallayev [6; 292], M.Solaeva [18; 28], N.G'anixo'jayeva [3;20], O.Jo'rayev [5;9-13] o'z ishlarida alohida diqqat qaratganlar. Haydar Xorazmiy Nizomiyning "Mahzan ul-asror" dostonini o'zbek tiliga ijodiy tarjima qilish va o'zi ham ko'pgina she'rlar hikoyatlar yozish bilan o'zbek adabiyotida she'riy hikoyaning

rivojiga katta hissa qo'shgan. Haydar Xorazmiyning hikoyanavislik borasidagi mahorati xususida N.M.Mallayev quyidagilarni yozadi: "Haydar Xorazmiy she'riy hikoyaning mohir san'atkorlaridan biridir. U kichik hajmli hikoyalarda katta va muhim bo'lgan biror mavzuni yoritishga, xarakterli obraz va portretlar yaratishga muvaffaq bo'ladi" [6; 294]. N.G'anixo'jayeva o'zining "Navoiy hikoyalarining asosiy manbalari haqida" nomli maqolasida Navoiy hikoyalarining yaratilishidagi asosiy manbalardan biri o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyoti bo'lganligini aytib, bunda Haydar Xorazmiy asarlariga ham to'xtaladi [3; 20]. Haydar Xorazmiyning Navoiyga ta'siri haqida E.Rustamov ham doktorlik dissertatsiyasida to'xtalib o'tgan.

Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, germeneytik, biografik metodlardan foydalanildi.

Muhokama. Haydar Xorazmiy adabiy merosi Navoiy ijodiyoti bilan bog'liqligi jihatdan ham qimmatlidir. Birinchidan, uning "Mahzan ul-asror" dostoniga "Hayrat ul-abror" dostonining tipologik yaqinligi hamda o'ziga xosligi ko'zga tashlansa, ikkinchidan, bu asar bilan Haydar Xorazmiy "Navoiy kabi ulug' san'atkorning yetishib chiqishiga ma'lum zamin hozirlagan shoirlardan biri bo'ldi" [6; 295]. Keyingi davrlarda mashhur "Gul-u Navro'z" dostonining Haydar Xorazmiy tomonidan yozilgani xususidagi e'tiroflar ham bu fikrni mustahkamlaydi. Binobarin, bu dostonni Bobur, Taroziy, Majlisiy va boshqalar asarlarida tilga olishgan ekan, undan Navoiyning bexabar bo'lishi mumkin emas. Navoiy va Haydar Xorazmiy dostonlarining g'oyaviy mazmun va ifoda shaklidagi o'xshashlik, hamohanglik ularning o'zaro aloqadorligi, ta'sirdan guvohlik beradi. Xususan, "Mahzan ul asror" da shunday baytlarni o'qiymiz:

Ko'zuma keng dunyo bo'lub tang-u tor,
Ro'zi qiyomatni ko'rib oshkor.
Har dam-u har lahza bir o'tqa yonib,
G'oyati yo'q otash ila o'rtonib.
O't ichida qaqnusi bechoravor,
Nolai jonso'z tuzib sad hazor.
Har nafas ohang qilib bir navo,
Dunyoda har lahza solib yuz sado [20; 188].

Anglashiladiki, muallif o'zini g'oyati yo'q otashda o'rtanib, har dam-u har lahza yonayotgan, olov ichida yuz ming "nolai jonso'z" tuzib, har nafas bir navo ohang qilib, olamga yuz sado solayotgan "qaqnusi bechoravor" sifatida tasvirlaydi. Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida ham shunga monand holatni kuzatamiz. Bunda shoir Shayx Fariddin Attorni qaqnusga, o'zini esa qaqnusbachaga qiyoslaydi:

Shayx ruhidin yetishti bu madad,
Kim bu bulbul lahni bo'ldi beadam.
Bu tanosibqa nazar solsa kishi,
Ko'p anga o'xshosh topar qaqnus ishi [15; 311].

Haydar Xorazmiyning insoniylik mezoni xususidagi qarashlari ham Navoiy dostonlarida birdek yangraydi. "Layli va Majnun" dostonidagi quyidagi misralar bu jihatdan xarakterli:

Qo'ymishsen oni asiri anduh
Kim, tutmish gah dasht, gahi ko'h.
Mundoqmu bo'lur muruvvat oxir,
Mardumlig' ila futuvvat oxir [12; 195].

Ushbu baytlar Haydar Xorazmiyning tarjima asaridagi quyidagi bayt bilan mazmuniy mushtaraklik kasb etadi:

Odam atang'ong'a muruvvat kerak,
Orif-u omig'a futuvvat kerak [20; 204].

Navoiyning estetik qarashlarida ham Haydar Xorazmiy ta'siri seziladi. Ma'lumki, "Navoiyning estetik prinsiplarini she'riyatda mazmun va shakl birligi, ayni choqda mazmunning ustunligi, ma'no ifodasida "dard ila so'z", ya'ni kuchli ehtiros va e'tiqodning zarurligi, "chin so'z"ni, ya'ni haqiqatni aytish talabi kabi qarashlar belgilaydi" [18; 28]. Navoiyning estetik prinsiplarini belgilab bergan qarashlar: so'z(bu o'rinda adabiy yaratma ma'nosida - S.M.), she'rda shakl va mundarijaning birligi, mazmunning prioriteti, so'z aytish mas'uliyati va so'zlaguvchi(ijodkor - S.M)ga qo'yiladigan talablar, ijodkor burchi, badiiy asar salmog'i, adabiy asar oldiga qo'yiladigan talab "Mahzan ul-asror"da bir bayt zahirida ifoda etiladi. "Haydar Xorazmiy so'zning ma'nosi bilan shaklini uzviy birlikda oladi hamda mazmundor, zavq-shavq bag'ishlovchi so'zni(badiiy so'zni), uning qudratini ta'riflaydi, ulug'laydi" [6; 292]. Chunonchi:

So'zda kerak ma'ni-yu, ma'nida shavq,
So'zlaguvchida so'z uchun dard-u shavq[20; 193].

Navoiy ham badiiy ijodning asosini, mohiyatini belgilovchi nazariy masalalar yuzasidan fikr yuritib, "Xamsa" tarkibiga kirgan barcha dostonlarida badiiy asarlarning mazmun va shakli haqida ilg'or fikrlarni o'rtaga tashlaydi. "Navoiy shakl mukammalligini badiiy adabiyotning juda muhim belgisi deb qaraydi" [2; 365]. Asarda g'oya, shakl birligi va bu birlikda mazmun yetakchiligi ta'min etilmasa, bunday asarning hech qanday qiymati bo'lmasligini ta'kidlab, "Hayrat ul abror" dostonida shunday yozadi:

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,
Bo'lsun aning surati harne durur.
Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo'b emas.
Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga[10;61].

Ko'rinadiki, Navoiy mazmun va shakl jihatdan go'zal, chuqur ma'noli she'rgina xalqning mulki bo'lishiga, ma'nosiz she'rlar esa ahli maoniy - aqlli kishilar nazarida bee'tiborligiga urg'u berish bilan ijodkor burchini uqtirib, uning o'quvchi oldidagi mas'uliyatini oshiradi. "Xazoyin ul maoniy"dagi ushbu bayt ham bu jihatdan xarakterlidir:

Ey Navoiy, sen-u Xusrav bila Jomiy tavri
San'at-u rangini qo'y, so'zda kerak dard ila so'z[9;162].

Guvohi bo'lganimizdek, Haydar Xorazmiy va Navoiyning estetik prinsiplari deyarli bir xil talablarga tayanadi.

"Gul va Navro'z" dostonida muhabbat mavzusi bema'ni urushlarga barham berish, odil va ma'rifatparvar hukmdor boshchiligida markazlashgan hokimiyatni vujudga keltirish uchun kurash bilan bog'lanadi, o'lkalarni o'zaro urushlar girdobidan qutqarib, tinchlik o'rnatgan, adolatni o'ziga bayroq qilib, olam mulkini obod qilgan Navro'z timsolida yagona hukmdor gavdalantiriladi:

Yeti iqlimda sanchish-u urush yo'q,
Kunincha chirg'alangdin o'zga ish yo'q.

Barining o'rniga Navro'z bo'ldi,
Murodi baxtina firo'z bo'ldi.
Jahonda qo'ydi yaxshi rasm-u oyin,
Tuzatti dunyoni sar to ba poyin[19;129].

Haydar Xorazmiy davlatlar o'rtasidagi nizolarni bitishuv yo'li bilan hal etilishini, o'zaro urushlarga xotima berilib, davlat hokimiyatining markazlashtirilishini orzu qilgani holda asar muqaddimasi va xotimasida Iskandar Mirzoni madh etar ekan, uni Navro'zdan ibrat olishga chaqiradi va shuning barobarida o'z orzusi ro'yobini u va boshqa temuriyzodalar faoliyatida ko'rishni xohlaydi. Shu kabi markazlashgan davlat va yagona hukmdor g'oyasini biz Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ko'ramiz. Unda ham Iskandar bahr-u bar podshosi bo'lib, yer yuzida osoyishtalikni barqaror qiladi, adolat o'rnatib, xalqni farovon hayotga erishtiradi. O'z navbatida Navoiy ham idealidagi podshoh Iskandarni o'z davri hukmdorlariga etalon tarzida ko'rsatadi.

Haydar Xorazmiy dostonida turli o'lka va xalqlarning farzandi bo'lgan Gul va Navro'z muhabbati, Farxor, Navshod, Adan, Yaman davlatlarining o'zaro kengashib, ittifoq qilishlari, o'rtalarida do'stlik aloqalarining o'rnatilishi orqali xalqlar do'stligi g'oyasini kuylagan bo'lsa, Navoiy ham "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy" dostonlarida Farhod va Shirin sevgisi, Iskandarning nomalariga ijobiy munosabatda bo'lib, unga musallam bo'lgan davlatlar misolida ushbu g'oyani ilgari suradi.

Asar qahramonlarining ishlanishida ham mushtarakliklar kuzatiladi. Xususan, dostonidagi asosiy voqealarning Navro'zning tug'ilishi bilan boshlanib, u bilan birga o'sib, rivojlanishi, Navro'zning bolalik chog'idanoq ilm-u hunar o'rganishi, o'zida insoniy fazilatlarini kamol toptira borishi, sipohlik, shohlik ilmini chuqur egallashi Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazida kuzatiladi. Yoki "Saddi Iskandariy"da Iskandarning tufuliyat avonida barcha ilmlarga qobiliyat ko'rsatib, fazl-u kamol pillapoyalaridan ko'tarilishi ham fikrimizni dalillaydi. Jamiyatda hali o'z o'rnini topmagan, tajribasiz, olam haqidagi tasavvurlari saroy devorlari bilan cheklangan, xalq turmushi, haqiqiy hayotning real manzarasidan bexabar Navro'zni dunyo bilan tanishtirish, irodasini og'ir va dahshatli sinovlarda toblash, yurt ichiga olib kirib, xalq dardini his qildirish, el yurtning orzu-intilishlari, g'am-u tashvishlaridan ogoh etish va shuning barobarida ruhan kuchli, xalqparvar, kelajak hukmdorini tayyorlashga Gulga nisbatan muhabbat vosita qilinganidek, Navoiy ham Farhodning ota mulkini tark etib, mashaqqatli safarga otlanishiga Shirin ishqini sabab qiladi. Navro'zning yakka o'zi daryo kechishi, devlar, to'fonga giriftor bo'lishi Farhod taqdirida ham takrorlanadi. Asar qahramonlarining to'fonga uchrashi motivini Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida Mehr va No'mon qismatida ham ko'ramiz.

Haydar Xorazmiy Gulni farosatli, tadbirli, azm-irodasi, jasorati va fahm idroki bilan har qanday qiyin vaziyatdan chiqib ketadigan, bemisl qahramonliklar ko'rsatib, kishilar hurmatini qozongan qiz sifatida tasvirga tortar ekan, uni goh yakka o'zi Javhar boshliq g'avvoslarni arslonlar hujumidan qutqarayotgan, goh Yaman qo'shini boshlig'i pahlavon Bahromga qarshi yakkama yakkam jangda mislsiz qahramonlik ko'rsatib, mag'lub etayotgan tarzda chizadi:

Gul ul dam qamchilab ilgari chiqti,
Iki uchin biror o'q birla yiqti.
Adanda yo'q edi bu sherkushi shast,
Na bu mardonalik, bu shast-u bu dast[19; 12].

Shunga o'xshash tarzda nazokatli, husn ichra xurshidi tobon, Zuhra yanglig' xushilhon qizning dushmanga shafqatsiz, jangda mard, kurashda botir, g'ayrat-shijoatli timsolini "Saddi Iskandariy"da sho'xi chiniynajod timsolida ko'ramiz. Iskandarga Chin hoqoni tuhfa etgan nafaqat jahon, balki jon ofati bo'lgan, jamoliga hur-u pari xonazod, xitoyi hasab, sho'xi chiniynajod qachonki jang maydoniga kirsam, maydon eli joniga qasd qiladi, g'anim gardun kabi zo'rmand bo'lsa ham kamand solib, o'ziga bo'ysunduradi, qilich solsa toshni yorib, shamshiriga g'ilof etadi, yoy tortganda o'qi qattiq toshlarni ham teshib o'tadi, qachonki dushman ustiga ot solsa, otining alqimiga yog'iyalar xasdek qo'zg'oladi. Iskandar mo'r xaylini shikor etish uchun sipoh tuzadi va devzorlar guruhi sipohi bilan yuzma yuz bo'ladi. Devzorlardan bittasi maydonga chiqib, talab qilganida Iskandar sipohining safdarlari ojiz qoladi va o'n uchasi unga yengilib, asir bo'ladi. Shunda g'azolai chiniy yuziga niqob tutgani holda sherdek maydonga kirib, ajdahoshikorlik qiladi:

Chu parxoshidin xasm bo'ldi najand,
Anga tashladi o'yla pechon kamand.
Ki, bo'yni bila bir qo'lin qildi rust,
Ani sudra-yu shah sori surdi chust.
Shah o'llig'a chobuksuvori daler,
Yetib, sekribon ottin andoqki sher.
Chekib tiyra tufrog' uza saydini,
Valek aylabon rust aning qaydini[14;498].

"Gul va Navro'z" bilan Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida badiiy xususiyatlar, uslub jihatdan ham ayrim mushtarakliklarni kuzatamiz. Bu doston obrazlarining asar voqealarining o'zi bilan birga o'sib, rivojlanishida, muallifning obrazlarni o'ziga xos hayot yo'li va individual xislatlari bilan gavdalantirishida, ma'naviy dunyosi va tashqi qiyofasini mahorat bilan tasvirlashida ko'riladi. Chunonchi, hijron azobidan dili pora bo'lgan Gul Bulbuldan Navro'zning hol-ahvolini so'rab, savolga tutadi:

Anga so'rdi, nechukdir ul g'aribim,
Muhibdin yod etarmu ul habibim.
Falakning javridin holi nechukdir?
Bu motam ichra ahvoli nechukdir?

"Farhod va Shirin"da Farhodning Xusrav tomonidan hiyla bilan bandi qilinib, Salosil qo'rg'oniga zinndanband qilingach, Shopur Farhodning tirikligi xabarini Shiringa yetkazadi. Xabar yetkazuvchining jonbaxsh damidin jonsiz jismig'a ruh yetgan Shirin maktub yozib Shopur orqali Farhodga yo'llaydi. Shirin yori ahvolini uning do'stidan emas, o'zidan so'raydi:

Nedur ahvoling, ey zori g'aribim,
Visolim davlatidin benasibim.
Chekardin g'am tog'in holing nechukdur?
Bu yukdin jismi chun noling nechukdur? [11;407]

Ushbu iqtiboslarda Gulning Navro'zga, Shirinning Farhodga munosabati ifodalanishi bilan birga ularning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari aks etgan. Ayni paytda ulardagi o'xshash jihatlar namoyon bo'ladi.

Qahramonlar ruhiyati, kayfiyatini to'laroq, bo'rttirib ifodalashda tabiat tasvirlaridan keng foydalanish, qahramonlar ichki dunyosini ochib berish uchun tashqi qiyofasi tasvirida turli tashbehlarni qo'llash Haydar Xorazmiy dostonidagi kabi Navoiyning liro-epik asarlariga

ham xos xususiyatdir. Xususan, “Gul va Navro‘z”da Shayx Najdining do‘zaxga o‘xshagan ko‘zi tasviri uning razilligini yanada chuqurroq ochishga xizmat qilgan bo‘lsa, “Farhod va Shirin”da Farhodni makr bilan o‘linga boshlagan qaddi ikki bukilgan pir zolning “Falak zoli kibi hiylat sigol”, “Xututi makrdin yuzinda yuz chin” tarzida tasvirlanishi uning butun xarakterini, kasb-u koridan o‘quvchini ogoh etadi. Haydar Xorazmiy “iztirob chekayotgan kishini chala so‘yib tashlangan parrandaga, jangni qora bulut yoki dahshatli quyunga o‘xshatish kabi sodda va go‘zal badiiy vositalar yaratadi”[6;346]. Chunonchi:

Tipirchilar chu murg‘i bismil,
O‘z-o‘zi birla so‘zlashur g‘ami dil[19;120].

Iztirob chekayotgan kishini chala so‘yib tashlangan parrandaga tashbeh qilish Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida otasini o‘ldirgan Sheruyaga Shirinning so‘zlarida ko‘riladi:

Aning hajrida men bemori bedil,
Qushemenkim, qilurlar nim bismil[11; 486].

Yoki “Sab‘ai sayyor”da:

Tushti yerga marizi bedildek,
Tolpinib saydi nim bismildek[13;120].

Shu o‘rinda “Gul va Navro‘z”dagi yana bir bayt e‘tiborni tortadi. Haydar Xorazmiy asarlarida lirik qahramon turli munosabatlar bilan “ey falon” deb murojaat qiladi:

Ilik mendin yuvung, ey mehribonlar,
Jonimdin ne tilarsiz, ey falonlar?![19;113]

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida o‘qiymiz:

Ki, a‘do soridin necha pahlavon:
Falon-u falon-u falon-u falon [14;411].

Navoiy qit‘alarida esa “falon” obraz darajasiga ko‘tarilgan:

Turfa ish ko‘rkim, falon har vaqtkim, qilg‘ay namoz,
Anda bir ish, g‘ayri nomashru‘, zohir bo‘lmag‘ay [8;141].

Natijalar. “Gul-u Navro‘z” dostoni Navoiy “Xamsa”si bilan bir asrda (72 yil farqi bilan) yaratilgan bo‘lsa ham Navoiy salaf shoirning estetik qarashlariga ijodiy munosabatda bo‘ldi, o‘z davrining muhim hayotiy, ijtimoiy masalalarini eng yuksak ideallar asosida yoritdi, novator sifatida ish ko‘rdi. Navoiy “Maxzan ul-asror”dagi inson, hayot, ezgulik, umr qadri kabi umumbashariy g‘oyalardan bahramand bo‘lgani kabi H.Xorazmiyning “Gulu Navro‘z” dostonidagi epik mahoratidan ham rag‘batlangani tabiiydir[5;9-13].

Xulosa. Xulosa qilganda, Navoiy va Haydar Xorazmiy dostonlarida g‘oyaviy mazmun va badiiy xususiyatlari, ifoda shakli, uslub jihatdan o‘xshashlik, hamohanglik kuzatiladi. “Mahzan ul-asror” dostoniga “Hayrat ul-abror” dostoni tipologik yaqinlik va o‘ziga xoslikka ega. Navoiyning estetik qarashlarida ham Haydar Xorazmiy ta‘siri seziladi. Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonlaridagi ishqiy-qahramonlik, shaxs erki, tinchlik va ma‘rifatparvarlik motivlarida “Gul-u Navro‘z” talqinlarining izlari, mukammallashgan tarzlarini his qilish mumkin. Asar qahramonlari sajiyasi, ichki dunyosi va tashqi ko‘rinishining ishlanishida ham mushtarakliklar mavjud.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Davlatshoh Samarqndiy. Tazkirat ush-shuaro. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashryoti, 1981.
2. G‘aniyeva S. Majolisun nafois // O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. T.2. – Toshkent: Fan, 1977.
3. G‘anixo‘jaeva N. Navoiy hikoyalarining asosiy manbalari haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. 1967. №4. -B.20.
4. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1996.
5. Jo‘rayev O. Alisher Navoiy va Haydar Xorazmiy//O‘zbek tili va adabiyoti. 1973. №1. - B.9-13.
6. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965.
7. Mualliflar jamoasi. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. T.1. – Toshkent: 1977.
8. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 3-jild. –Toshkent: Fan, 1988.
9. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 5-jild. – Toshkent: Fan, 1990.
10. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 7-jild. – Toshkent: Fan, 1991.
11. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 8-jild. – Toshkent: Fan, 1991.
12. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 9-jild. – Toshkent: Fan, 1992.
13. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 10-jild. – Toshkent: Fan, 1992.
14. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 11-jild. – Toshkent: Fan, 1993.
15. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 12-jild. – Toshkent: Fan, 1996.
16. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997.
17. Navoiy. Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
18. Solayeva M. Navoiy va Xorazm shoirlari. – Urganch: Murabbiy, 1993.
19. Xorazmiy H. Gul va Navro‘z // Navoiyning nigohi tushgan. –Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986.
20. Xorazmiy H. Mahzan ul asror // Navoiyning nigohi tushgan. –Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986.
21. Бертелс Е.С. Низами и Физули, - Москва, 1962.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).